

“20” dekabr 2023 yil.

Toshkent shahri

“Hurriyat” gazetasi tahririyati nomidan gazeta Nizomi asosida ish yurituvchi bosh muharrir A.P.Jumaqulov, (quyidagi o‘rinlarda “Tahririyat” deb nomlanuvchi) bir tomondan va o‘z Nizomi (Ustavi) asosida faoliyat yurituvchi (keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb nomlanuvchi) nomidan ish yurituvchi ikkinchi tomondan, birgalikda “Tomonlar” deb ataluvchilar o‘rtasida o‘zaro quyidagi maqsad hamda majburiyatlarni bajarish uchun mazkur shartnomani tuzdilar.

I. SHARTNOMA MAZMUNI:

1.1. Mazkur shartnomaga asosan “Buyurtmachi” “Hurriyat” gazetasiga shartnomaning 2.1 bandida ko‘rsatilgan miqdor va baho asosida 2024 yil uchun obuna bo‘ladi, “Tahririyat” tomonidan “Buyurtmachi” tomonidan obuna bo‘lingan gazetani yil davomida uning manziliga yetkazib berish majburiyatini oladi. Gazeta 2024 yil 1 yanvardan 31 dekabrga qadar jami 52 ta son, 8 sahifada, to‘liq rangli usulda, A-2 formatida chop etiladi. “Buyurtmachi” gazeta uchun obuna pulini mazkur shartnomaning II-bandining 2.1 va III-bandining 3.1 qismlariga asosan to‘laydi.

II. NASHRNING OBUNA BAHOSI VA HISOB-KITOB TARTIBI:

2.1. Gazetaning 2024 yil uchun “Tahririyat” tomonidan belgilangan obuna bahosi Toshkent shahri va O‘zbekiston Respublikasining barcha viloyat, tuman (shahar)dagi tegishli manzillariga pochta xizmatlari yoki “Tahririyat” imkoniyatlari orqali yetkazib berish sharti bilan quyidagicha belgilanadi:

Gazeta indeksi	Gazeta nomi	Obuna soni va muddati		I nusxa gazetaning 1 yil (12 oy)lik obuna narxi manziliga yetkazib berish xizmati va QQS bilan birga jami: 702 000 so‘m
		Nusxa (dona)	Necha oyga	
233	“Hurriyat” mustaqil gazetasi	3	12	2 106 000

Shartnoma umumiy bahosi 2 106 000 (Ikki million bir yuz olti ming) so‘m

III. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI:

3.1. “Buyurtmachi”:

— Gazeta uchun obuna pulini oldindan 100 (yuz) foiz miqdorida mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab 7 (yetti) bank kuni davomida “Tahririyat”ga pul o‘tkazish yo‘li bilan yoki naqd holda to‘lovni amalga oshiradi.

3.2. “Tahririyat”:

— “Buyurtmachi”ning manziliga gazetani pochta bo‘limlari orqali yoki o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib yetkazib beradi. Obuna to‘loviga oid hisob-fakturalarni belgilangan tartibda elektron tarzda “Buyurtmachi”ga jo‘natadi.

3.3. “Buyurtmachi”:

— Nashrlar o‘z vaqtida yetkazib berilishini, yetkazib beriladigan nashrning obuna soni to‘liqligini “Tahririyat”dan talab qilishi yoki shartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki to‘liq darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini “Tahririyat”dan belgilangan tartibda talab qilish huquqiga ega.

3.4. “Buyurtmachi” tomonidan shartnomada ko‘zda tutilgan to‘lov kechiktirilgan hollarda “Tahririyat”ga o‘tkazib yuborilgan har bir kun uchun mazkur obuna shartnomada belgilangan umumiy to‘lov summasining 0,4 foiz miqdorida, ammo shartnomada ko‘zda tutilgan umumiy summasining 40 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda penya-jarima to‘laydi.

3.5. “Tahririyat” tomonidan shartnomada ko‘zda tutilgan gazeta chop qilinmaganda yoki to‘lig‘icha chop etilmagan taqdirda yoki gazeta chop qilingan bo‘lsa-da, “Buyurtmachi”ga yetkazib berilmagan yoki qisman yetkazib berilmagan bo‘lsa, “Tahririyat” o‘tkazilgan mablag‘ni “Buyurtmachi”ga qaytarib beradi. Qaytariladigan mablag‘ kechiktirilgan hollarda har bir kechiktirilgan kun uchun umumiy to‘lov summasining 0,5 foizi miqdorida, ammo mazkur shartnoma umumiy summasining 40 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorida penya-jarima to‘laydi.

IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI:

4.1. “Tomonlar” mazkur shartnoma bo‘yicha o‘z zimmalariga olgan majburiyatlari uchun amaldagi qononchilikka asosan javobgardirlar.

4.2. “Tomonlar” mazkur shartnomani bir tomonlama bekor qilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

4.3. Ushbu shartnoma bo'yicha barcha tushinmovchilik va kelishmovchiliklar avvalo o'zaro muzokara yo'li bilan, buning imkoni bo'lmagan hollarda amaldagi qonunlarga binoan sud tartibida hal etiladi.

V. Korrupsiyaga qarshi choralar

5.1. Ushbu shartnoma bo'yicha "Tomonlar" korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari talablariga rioya qilish va ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquqlari yoki majburiyatlari bilan bog'liq holda korrupsiyaga qarshi qonun normalarini buzadigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaslik majburiyatini oladilar, shu jumladan (cheklovsiz) har qanday jismoniy yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda) tijorat tashkilotlariga, davlat hokimiyati va jamiyatning o'zini o'zi boshqarish organlariga noqonuniy to'lovlarni, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda) naqd yoki boshqa shaklda pora berish, taklif qilish, ruxsat berish, va'da qilish va amalga oshirish. xizmatchilar, xususiy kompaniyalar va ularning vakillari. "Tomonlar"dan biri ushbu shartnomaning ushbu bandida ko'rsatilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda, boshqa tomon bir tomonlama tartibda, suddan tashqari ushbu shartnomani bajarishni rad etishga haqli. "Tomonlar" ushbu bandga muvofiq ushbu shartnoma bekor qilingan taqdirda bir-birlariga yetkazilgan zararni qoplaydilar.

5.2. "Tomonlar" quyidagilarni ifodalaydi va kafolatlaydi:

"Tomonlar"ning har biri, shuningdek, ular bilan bog'liq shaxslar o'z faoliyatini vijdonan va qonuniy ravishda, yuksak axloqiy me'yorlarga rioya qilgan holda olib borishlari shart. "Tomonlar" korrupsiyaga, soliqqa oid firibgarlikka, har qanday shaklda soliq to'lashdan bo'yin tovlashga ko'maklashishga va jinoyi faoliyatning boshqa har qanday shakllariga nisbatan murosasiz siyosatga amal qiladi va yuqoridagi masalalarni doimiy nazoratda ushlab turadi.

"Tomonlar" shuningdek, ular bilan bog'liq shaxslar: vakolatli shaxslar, vakillar korrupsiyaga, soliqqa oid firibgarlikka va soliq to'lashdan bo'yin tovlashga har qanday shaklda (bevosita yoki bilvosita) hissa qo'shishi mumkin bo'lgan har qanday faoliyat bilan shug'ullanmasligi kerak.

VI. FORS-MAJOR:

6.1. Mazkur shartnoma imzolanganidan so'ng "Tomonlar"ga bog'liq bo'lmagan, ya'ni oldini olishi mumkin bo'lmagan favqulotda holatlar (suv toshqini, zilzila, tabiiy ofatlar, mamlakatda urush holatlari yuz berganda, Hukumatning "Tomonlar" faoliyatiga doir ta'qiqlovchi qaror, yoki farmoyishlari chiqishi) ya'ni fors-majior holatlar sanaladi. Shartnoma shartlarining to'liq yoki qisman bajarilmasligi fors-majior holati tufayli kelib chiqqanda, bu haqda "Tomonlar" o'zaro kelishuv bayonnomalari tuzishlari lozim.

6.2. Fors-majior holati yuz bergan taqdirda "Tomonlar" boshqa tomonni bu haqda 24 soat ichida yozma yoki og'zaki xabardor qilishi shart.

VII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI:

7.1. Shartnoma ikki nusxada tuzilib, "Tomonlar"ning har birida bir nusxadan bo'lib, har ikkala nusxa bir xil qonuniy kuchga egadir. Shartnoma "Tomonlar" tasdiqlagan kundun e'tiboran 2024-yil 31-dekabrga qadar amal qiladi.

VIII. TOMONLARNING MANZIL VA BANK REKVIZITLARI, MUXRI HAMDA IMZOLARI:

"TAHRIRIYAT"

"BUYURTMACHI"

"HURRIYAT GAZETA TAHRIRIYATI" MCHJ

H/R: 20212000503973590001

TIF MILLIY BANKI AJ "SEBZOR AMALIYOT" BXM

MFO: 00450, STIR: 202 743 398

OKED: 58130, OKONX:87100


Toshkent sh, A.Navoiy ko'chasi, 30-uy.

tel(faks): (8371) 244-32-80, 244-32-70

(imzo)

A.P.Jumaqulov

(F.I.SH.)



K.B. Dug'cob

(F.I.SH.)

Katta yuriskonsult
N. Ismamatov



O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI

OMMAVIY AXBOROT VOSITASI
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILGANLIGI TO'G'RISIDA
GUVOHNOMA

№ 0080

Nomi “Хуррият”

Tarqatish shakli gazeta
(gazeta, jurnal va boshqalar)

Til(lar)i Ўзбек

Muassis(lar)i Ўзбекистон Журналистлари ижодий уюшмаси

Ixtisoslashuvi Ижтимоий-сиёсий бўлиб, Ўзбекистон Республикаси мустақиллигини
мустахкамлаш, ҳуқуқий-демократик давлат, фуқаролик жамиятини шакллантиришга кўмаклашиш

Tahririyat manzili 700011, Toshkent shahri, Navoiy kuchi 16 uy

Tarqatish hududi Respublika b'yiicha

Berilgan sanasi 03.01.2007y.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi
organ rahbari B. Sh. ALIMOV

Ushbu guvohnoma «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq berilgan.

O'zbekiston Respublikasining ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq jinoiy, ma'muriy, intizomiy va boshqa javobgarlikka sabab bo'ladi.



ASLIGA TO'G'RI